

Muxitdinova Xadicha Sobirovna
pedagogika fanlari doktori
O'zDJTU professori,
muxitdinovaxadichas@gmail.com

DAVLAT TILI TA'LIMI UZLUKSIZLIGINI TA'MINLASHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISHGA DOIR MULOHAZALAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada respublikamizda maktabgacha ta'limdan boshlab to oliy ta'limgacha bo'lgan bosqichlarda o'zbek tilini o'qitish uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashda mavjud muammolar va ularni bartaraf etishga doir taklif va tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, davlat tili, uzviylik va uzluksizlik, DTS talablari.

СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НЕПРЕРЫВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ НА ГОСУДАРСТВЕННОМ ЯЗЫКЕ И СООБРАЖЕНИЯ ПО ИХ ПРЕОДОЛЕНИЮ

Аннотация: В данной статье освещены существующие проблемы и предложения по их преодолению и обеспечению преемственности преподавания узбекского языка в республике на этапах от дошкольного до высшего образования.

Ключевые слова: узбекский язык, государственный язык, преемственность и преемственность, требования ДТС.

EXISTING PROBLEMS OF ENSURING THE CONTINUITY OF EDUCATION IN THE STATE LANGUAGE AND CONSIDERATIONS FOR OVERCOMING THEM

Abstract: This article highlights the existing problems and proposals for overcoming them and ensuring the continuity of Uzbek language teaching in the republic at the stages from preschool to higher education.

Keywords: Uzbek language, state language, continuity and continuity, DTS requirements.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 21- oktyabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF 5850-sonli [1], 2020- yil 20- oktyabrdagi «Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6084-sonli Farmonlari [2], "Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta'lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" 2023-yil 20-apreldagi PQ-128-sonli Qarori hamda shular asosida qabul qilingan "2020-2030 yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi"da [3] mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etilishini ta'minlash, xususan, o'zbek tilini mamlakatimiz hududida istiqomat qiluvchi barcha millatlar va elatlar tomonidan o'rganilishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu Farmonlar ijrosini ta'minlash, avvalo, o'zbek tili ta'limida tub islohotlarni amalga oshirish, o'zbek tilini davlat tili sifatida o'qitish metodikasini yaxshilashni, bu esa, avvalo, ta'lim bosqichlariaro uzluksizlikning ta'minlash hamda o'zbek tilidan davlat ta'lim standartlarini va o'quv dasturlarini takomillashtirish masalalarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Ta'kidlash kerakki, bugungi kunda aynan o'zbek tilini ta'lim bosqichlarida uzluksizlik asosida o'qitish masalasida jiddiy muammolar mavjud va ular respublikamizning davlat tili ta'limi

samaradorligini ta'minlanishida katta to'siq bo'lmoqda. Quyida ushbu muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari yuzasidan ayrim fikr va mulofazalarni bayon etmoqchimiz.

1-muammo. Ma'lumki, respublikamiz ko'p millatlar istiqomat qilgani uchun ta'lim 7 tilda: o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, tojik va turkman tillarida olib boriladi. Bulardan tashqari barcha maktablarda 1-sinf dan chet tillari ham o'qitiladi. Bugungi kungacha chet tillari ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarda 1-sinf dan boshlab, respublikaning davlat tili hisoblanuvchi o'zbek tili esa 2-sinf dan boshlab o'qitib kelinmoqda. Ta'kidlash kerakki, hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari uzluksiz ta'lim tizimining ilk bosqichiga aylantirilgach, ishlab chiqilgan "Ilk qadam" dasturi asosida MTTlarning katta va tayyorlov guruhlarida bolalarga o'zbek, rus, chet tillarining o'rgatilishi yo'lga qo'yilgan [4]. Biroq o'zbek tilining ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda 2-sinf dan boshlab o'qitilayotganligi tufayli, davlat tili ta'limi uzluksizligida uzilish yuz bermoqda va MTTlarda bolalarga 2 yil ichida o'rgatilgan ko'nikmalar havoga uchib ketmoqda. Shu bois biz o'zbek tilini ham 1-sinf dan boshlab o'qitilishini yo'lga qo'yish zarur deb hisoblaymiz.

2-muammo. Chet tillarini o'rgatishda yozish amali 2-sinf dan boshlanishi natijasida bugungi kunda ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda 2-sinf da lotin yozuvining 2 xil varianti (lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va ingliz tili alfbosi) bir vaqtda o'rgatilmoqda. Ko'rinadiki, ushbu maktablarda kirill yozuvi uchun to'liq 1 yil, lotin yozuvining 2 xil shakli uchun faqat yarim yildan vaqt berilgan. Ingliz va o'zbek lotin harflari tizimini va orfografik qoidalarini bir vaqtda o'rganish, o'quvchilar tomonidan me'yoriy ko'nikmalarni puxta o'zlashtirmaslikka olib kelmoqda, ular har bir til orfografiyasi me'yoriy qoidalarini aralashtirib qo'llashga odatlanib qolishmoqda. Bu yozma savodxonlikning keskin pasayib ketishiga, xususan, ingliz tilida bosma harflar bilan yozish qoidasi ta'sirida o'zbek tilidagi harflarni ham shunday yozishga va husnixatga mutlaqo e'tibor berilmasligiga olib kelmoqda.

Ushbu muammoni bartaraf etish uchun o'zbek tilini o'qitishni dastlab 1-sinf ning 1-yarim yilligida faqat og'zaki nutq ustida ishlash bilan boshlashni, ya'ni o'quvchilarda avval to'g'ri talaffuz me'yorlarini shakllantirish va lug'at boyligini o'stirish; 2-yarim yillikdan boshlab esa yozuv ko'nikmalarini o'rgata boshlash kerak. Bu ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o'quvchilarning har bir yozuv ko'nikmasini o'zlashtirishlari uchun yarim yildan vaqt berilishini, shuningdek, o'quvchilar imlo qoidalarini aralashtirmay puxta o'rganib olishlarini ta'minlaydi.

3-muammo. Qayd etish kerakki, chet tillarni o'qitishning Umumyevropa kompetensiyalari asosida o'zbek tilini o'qitish bo'yicha bilimlar darajasiga qo'yiladigan kompetensiyaviy talablar [5] respublikamizda chet tillarni o'qitishga qo'yilgan talablar bilan bir xil ekanligi, ya'ni:

- boshlang'ich 2-4- sinflar uchun A1;
- 5-9 sinflar uchun A2;
- 10-11-sinflar va AL hamda KHK bitiruvchilari uchun B1;

- OTMlar uchun B2 (faqat filologlar uchun esa C1) daraja talablari belgilanganligi, biroq nofilologik yo'nalishlarida milliy guruhlarda "Ona tili" fanining o'qitilmasligi bois asosiy ko'pchilikning o'zbek tilidan bilimlari maktab va o'rta maxsus ta'limga qo'yiladigan V1 darajada qolib ketayotgani, nofilologik oliy ta'lim muassasalarida ham "O'zbek tili" fani soatlarining kamligi rusiyzabon talabalarga respublikamizning davlat tilini B2 darajada ham egallash imkonini bermayotganligi e'tiborga olinsa, bu holat respublikamizning davlat tilini B1 darajada bilishlari kifoya deb hisoblanishiga, o'zbek tilining C1 va C2 darajasi esa hech kimdan talab etilmasligiga olib kelmoqda. Ushbu muammoni bartaraf etish, avvalo, ta'lim bosqichlari uchun o'zbek tilidan qo'yiladigan darajaviy talablarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Respublikamizda chet tillarni o'qitishni A1 darajadan boshlanishi, tabiiy. Biroq o'zbek tilida gapirib-so'zlab turgan bolalarga ta'limni A1, ya'ni 0 darajadan boshlash mutlaqo to'g'ri emas. Biz A1 daraja talablarini maktabgacha ta'lim muassasalari uchun belgilash va boshlang'ich sinflarga o'quvchilarni A1 daraja talablari bo'yicha suhbatdan o'tkazib qabul qilishni (bunday tajriba maktablarda allaqachon yo'lga qo'yilgan) taklif etamiz va o'zbek tilini o'qitishning kompetensiyaviy darajalari talablarini quyidagicha takomillashtirish zarur deb o'ylaymiz:

A1 daraja – o‘zbek tilini o‘rgatishning **ilk bosqichi** (maktabgacha ta’lim tashkilotlari va maktabga tayyorlov guruhlar tarbiyalanuvchilari uchun).

A2 daraja – o‘zbek tilini o‘qitishning **boshlang‘ich bosqichi** (ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 4-sinflar bitiruvchilari uchun).

B1 daraja – o‘zbek tilini o‘qitishning **tayanch bosqichi** (ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 9-sinflari bitiruvchilari uchun).

B2 daraja – o‘zbek tilini o‘qitishning **sohaviy yo‘naltirilgan bosqichi** (ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 11-sinflari bitiruvchilari hamda ta’lim rus va qoraqalpoq tillarida olib boriladigan liseylar va kasb-hunar kollejlari guruhlar bitiruvchilari uchun).

C1 daraja – o‘zbek tilini o‘qitishning **yuqori bosqichi** (nofilologik OTMLar rus guruhlar talabalari uchun, filologik yo‘nalishda esa bu **C2 darajagacha** o‘tib borishi kerak bo‘ladi).

Respublikamizda o‘zbek tilidan **maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilari, maktabga tayyorlov sinflari uchun belgilash A1 daraja talablarini** va maktabga qabul qilinayotgan bolalarni shu daraja talablari asosida suhbatdan o‘tkazib qabul qilinishini yo‘lga qo‘yish umumta’lim maktablari ona tili ta’limida bu katta qiyinchilik tug‘dirmaydi. Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda ta’lim olayotgan o‘quvchilarning aksariyati o‘zbek va qarindosh turkiy tillar oilasiga mansub til sohiblarining farzandlari ekanligi, hatto qarindosh bo‘lmagan rus tili sohiblarining ham til muhitida yashab voyaga etayotganlari e’tiborga olinsa, ularni ham maktabga A1 daraja talablari asosida qabul qilish mumkinligini ayon bo‘ladi. Bunga maktabgacha ta’lim tashkilotlari va maktabga tayyorlov guruhlarida o‘zbek-rus, o‘zbek-ingliz tillarini o‘rgatib borish asosida bolalarda ikki tillilikni shakllantirib borish orqali bimalol erishish mumkin. Ta’kidlash kerakki, bolalarga kichik yoshidan tillarni o‘rgatish samarali ekanligi jahon didaktikasida tan olingan, qolaversa, bolalarimizdagi ajdodlarimizga xos zullisonaynlik qobiliyatini uyg‘otish vaqti etdi.

3. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim bosqichida o‘zbek tilini kichik yoshdagi bolalarga mos tarzda o‘rgatish dasturi ishlab chiqilib, o‘zbek tilini tarbiyalanuvchilarning ona tilidagi lug‘at zahirasiga tayanib o‘rgatish metodlari, zaruriy lug‘at minimumi aniqlanmoqda, maktabgacha ta’lim va tayyorlov guruhlar uchun uslubiy qo‘llanmalar tayyorlash ishlari boshlab yuborilgan. Shaxsan o‘zim rahbarligimda maktabgacha ta’lim muassasalarida katta guruhlar va tayyorlov guruhlar bolalariga o‘zbek-rus, o‘zbek-ingliz ikki tilligini shakllantirish metodikasi, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ingliz tili va ona tilini o‘qitish metodikasi yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida tillarni o‘rgatishni kichik yoshdan boshlash, ona tili va chet tillarini o‘zaro bosqichli ketma-ketlikda o‘qitishning ilmiy-nazariy, didaktik, psixolingvistik va metodik asoslari ishlab chiqilib, ilmiy xulosalar va amaliy metodik tavsiyalar berilgan.

Ushbu takliflar va tavsiyalar o‘zbek tili ni o‘qitish metodikasini va o‘quv-uslubiy ta’minotini yangilashni taqozo etadi. O‘quv-uslubiy ta’minotni faqat darslik va o‘qituvchi kitoblari tashkil etmaydi. Ta’lim jarayoni uchun, ayniqsa ta’limning poydevori hisoblanadigan maktabgacha ta’lim muassasalari va boshlang‘ich sinflar darsliklari uchun o‘zbek tili nutq tovushlari talaffuzini mustahkamlashga, yangi so‘zlarni o‘rgatishga qaratilgan **bolalarbop she’rlar, qo‘shiqlar ham kerak**. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasini isloh qilish uchun chet tillarni o‘qitishdagi kabi multfilmlar, **multimedia ishlanmalarini**, yuqori sinflar uchun adabiy tildagi nutq madaniyatini rivojlantirish, milliy madaniy qadriyatlarimizni singdirishga qaratilgan **o‘quv filmlarini yaratish** kerak. Darsliklarni yaratishda bevosita bolalar shoirlari, ta’limiy maqsadlarda kichik hajmda qo‘shiqlar yaratuvchi bastakorlarning ijodiy ko‘maklari ham kerak bo‘ladi. Shu yo‘nalishda O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi va bastakorlar bilan hamkorlikda ishlashni yo‘lga qo‘yish, yosh ijodkorlarga shu kabi vazifalarni yuklash, maxsus tanlovlar e’lon qilish orqali bu borada muayyan zahirani to‘plab olish darsliklar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar mazmunini boyitish, darsliklarning qiziqarli bo‘lishiga katta imkon yaratgan bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.«O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PF-5850-sonli Farmon, 2019- yil 21- oktyabr.

2. «Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PF-6084- sonli Farmon, 2020-yil 20-oktyabr. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 21.10.2020- y., 06/20/6084/1398-son.

3. 2020 — 2030- yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2020. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 20- oktabrdagi PF-6084-son Farmoniga 1-ilova, 5-band. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 21.10.2020- y., 06/20/6084/1398-son.

4. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan uchinchi nashri). –Toshkent, 2025.

5. O‘zbek tili fani bo‘yicha uzluksiz majburiy ta‘lim tizimida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar / O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz majburiy ta‘lim tizimining Davlat ta‘lim standartlari, 2017-yil 10-aprel.